



YUNESKONING JAHON XOTIRASI DASTURI VA UNDA O'ZBEKISTONNING
ISHTIROKI

U.A.Sattorov

Oriental universiteti o'qituvchisi

E-mail: beksattoroff123@gmail.com

ORCID: [0009-0009-7376-2421](https://orcid.org/0009-0009-7376-2421)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada YUNESKONing "Jahon xotirasi" dasturi hamda unda O'zbekistonning ishtiroki masalalari yoritib berilgan. Tadqiqotda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy tarix, madaniy meros va noyob qo'lyozmalarni asrash, ularni xalqaro miqyosda targ'ib qilish borasida amalga oshirilgan islohotlarga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mamlakatimizdagi qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar va nodir manbalarni saqlash, restavratsiya qilish hamda ularni YUNESKONing "Jahon xotirasi" ro'yxatiga kiritish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekistonning mazkur dastur doirasidagi xalqaro hamkorligi, xususan, kutubxonalar, arxivlar va ilmiy markazlarning faoliyati haqida batafsil ma'lumot beriladi. Tadqiqot davomida "Jahon xotirasi" dasturining tarixiy merosni saqlash, yosh avlodga yetkazish hamda milliy qadriyatlarni dunyo miqyosida targ'ib etishdagi ahamiyati ochib beriladi. Mavzuni yoritishda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, arxiv materiallari va davriy matbuot manbalaridan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *YUNESKO, Jahon xotirasi, Usmon mus'hafi, "Xiva xonligi konselyariyasi", Sharqshunoslik instituti, Mavlono Rumiy kulliyoti, Qushbegi arxivi, "Jome'-at tavorix", Sug'd hujjati, hujjatli meros.*

Annotation. *This article examines the UNESCO Memory of the World Programme and Uzbekistan's participation in its implementation. The study pays particular attention to the reforms undertaken after Uzbekistan gained independence to preserve the nation's history, cultural heritage, and unique manuscript collections, as well as to promote them at the international level. Furthermore, the article analyzes the ongoing efforts to preserve, restore, and safeguard ancient manuscripts, historical documents, and rare sources held in the country, along with initiatives aimed at their inclusion in UNESCO's Memory of the World Register. The paper also provides detailed information on Uzbekistan's international cooperation within the framework of the Programme, with particular emphasis on the activities of libraries, archives, and research institutions. The study highlights the significance of the Memory of the World Programme in preserving historical heritage, transmitting it to future generations, and promoting national values on a global scale. In exploring the topic, the research draws upon relevant legal and regulatory documents, scholarly studies, archival materials, and periodical publications.*

Keywords: *UNESCO, Memory of the World, the Uthman Mushaf (Uthman Qur'an), the Khiva Khanate Chancellery Records, Institute of Oriental Studies, the Collected Works of*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Mawlana Rumi, the Kushbegi Archive, Jami al-Tavarikh, the Sogdian Document, Documentary Heritage.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston va jahon hamjamiyati o'rtasida faol hamkorlik yo'lga quyilgan bo'lib, respublikamiz qator xalqaro tashkilotlar va dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida faol hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Tashqi siyosatda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan ham hamkorlik yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Fan, ta'lim va madaniyat sohasida BMT ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKO bilan respublikamiz aloqalari mustaqillikkacha tor doirada faqatgina, madaniy sohada hamkorlik o'rnatilgan. O'zbekistonning istiqbolga erishishi va 1993-yil 26-oktyabrda tashkilotga a'zo bo'lishi bilan hamkorlik aloqalari mustahkamlandi. Tashkilot mandatiga kiruvchi fan, ta'lim, madaniyat va kommunikatsiya sohalarida yildan-yilga hamkorlik mustahkamlanmoqda. Shuningdek, tashkilot mandatiga kiruvchi qator dastur va loyihalarda respublikamiz faol ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunda butun dunyoda tinchlikni o'rnatish, qashshoqlikni tugatish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, ta'lim orqali madaniyatlararo muloqot tuzish, fan sohalarini rivojlantirish, xalqaro madaniy va ma'lumot almashinuvga yordamlashish, turizmni rivojlantirish kabi masalalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan muassasalari shu jumladan, fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilot hisoblanmish YUNESKOning muhim vazifalaridandir. YUNESKOning 3 ta asosiy organlaridan biri hisoblanmish Bosh Konferensiya tashkilotning asosiy organi bo'lib, har ikki yilda bir marta tashkilot qarorgohi bo'lgan Parij shahrida barcha a'zo davlatlar ishtirokida bo'lib o'tadi. 2025-yil 30-oktabrdan 13-noyabrgacha O'zbekiston, qadimiy va navqiron Samarqand shahrida jahon miqyosidagi muhim tadbirga YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga mezbonlik qildi. Tadbir mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada yuksaltirishga, jahon hamjamiyatini O'zbekistonning boy tarixi va madaniyati bilan tanishtirishga yaqindan yordam bergan tarixiy ahamiyatga ega voqeaga aylandi. BMTning madaniy tashkiloti hisoblangan YUNESKOning asosiy tadbiri 40 yildan ortiq vaqt davomida ilk bor uning Parijdagi bosh qarorgohidan tashqarida uyushtirildi. Oxirgi marta tashkilot Bosh konferensiyasining safar formati 1985-yilda Bolgariya poytaxti Sofiya shahrida bo'lib o'tgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilish marosimida qatnashdi hamda bir qator muhim tashabbus va takliflarni ilgari surdi. Ushbu tashabbuslar qatorida **19-noyabrni "Hujjatli meros xalqaro kuni"**, deb e'lon qilish taklifi ham bor edi. O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari so'rilgan tashabbuslar nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun ham kelajakda katta ahamiyat kasb etadi. 2026-yil 23-aprel kuni YUNESKOning Parij shahridagi qarorgohida tashkilot Ijroiya





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kengashining 224-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan 19-noyabrni – Xalqaro hujjatli meros kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi qaror loyihasi bir ovozdan maqullandi⁸⁸.

Hujjatli meros – qo‘lyozmalar, arxivlar, kutubxona fondlari, audiovisual materiallar va raqamli yozuvlar – insoniyat jamoaviy xotirasining muhim qismi hisoblanadi. Ammo, resurslar yetishmasligi, raqamlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi, texnologik eskirish, iqlim va boshqa xavf-xatarlar tufayli zaif bo‘lib qolmoqda. Ushbu tashabbus hujjatli merosning ahamiyati haqida global xabardorlikni oshirish, a‘zo davlatlar va hamkorlarning uni asrab-avaylash bo‘yicha sa‘y-harakatlarini faollashtirish, undan foydalanish imkoniyatini, jumladan, raqamli shaklda kengaytirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash hamda YUNESKOning “Jahon xotirasi” dasturining ko‘rinishini kuchaytirishga qaratilgan. Mazkur tashabbus tashkilotning hujjatli merosni asrab-avaylash, axborotdan foydalanish, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish singari sohalaridagi joriy ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

O‘zbekiston tashabbusi YUNESKOga a‘zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi. Jumladan, tashkilotga a‘zo 65 ta davlat O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan Ijroiya kengashi qarorining hammualliflari bo‘ldi. Sessiya davomida qator davlatlar vakillari ham O‘zbekistonning tashabbusini qat‘iy qo‘llab-quvvatlab, uning o‘z vaqtida amalga oshirilgani, amaliy ahamiyati va YUNESKOning hujjatli merosni saqlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ta‘kidladi. O‘zbekiston rahbarining Xalqaro kunni ta‘sis etish tashabbusi YUNESKOning ta‘lim, madaniyat, bilim olish va insoniyat xotirasini asrab-avaylash sohalaridagi ustuvor yo‘nalishlariga uyg‘unligi, shuningdek, “Jahon xotirasi” dasturini mustahkamlash, hujjatli merosga xalqaro e‘tiborni kengaytirish va uni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni faollashtirishga xizmat qiladi.

Hujjatli meros faqat madaniy emas, balki tarixiy xotirani saqlash, milliy o‘zlikni tiklash, davlatchilikni mustahkamlash hamda tarixiy adolatni ta‘minlash nuqtayi nazaridan kengroq ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega ekaniga alohida e‘tibor qaratildi. Tashabbusning resurslar taqchilligi, texnologik cheklovlar va iqlim xavf-xatarlari oldida eng zaif bo‘lgan mamlakatlar uchun amaliy ahamiyati beqiyosdir. Tashkilotning belgilangan tartibiga muvofiq, Xujjatli meros kunining rasmiy e‘lon qilinishi 2027-yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 44-sessiyasida bo‘lib o‘tadi.

2023-yil 19–22-sentabr kunlari O‘zbekiston Milliy kutubxonasida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti (IICAS), YUNESKO ishlari bo‘yicha Koreya milliy komissiyasi (KNCU), Koreya Respublikasi Madaniy meros ma‘muriyati (CHA), YUNESKO shafeligidagi Xalqaro hujjatli meros markazi (ICDH) hamda YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan hamkorlikda YUNESKO “Jahon xotirasi” xalqaro mintaqaviy seminar-treningini o‘tkazildi. Yig‘ilish soha mutaxassislarining hujjatli

⁸⁸ YUNESKO Ijroiya kengashi O‘zbekistonning 19-noyabrni Xalqaro hujjatli meros kuni deb e‘lon qilish tashabbusini bir ovozdan ma‘qulladi. // <https://dunyo.info/uz/Fakt/ispolnitelnyy-sovet-yunesko-edinoglasno-odobril-iniciativu-uzbekistana-o>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



merosni aniqlash, saqlash, tadqiq etish va atroflicha xabardor bo‘lish sohalarida malakasini oshirishga qaratilgan. 15 ga yaqin davlat muassasalari ekspertlari ishtirok etgan tadbirning ochilish marosimida mamlakatimizning tarixiy hujjat va asarlari taqdim etildi.

“Jahon xotirasi” dasturi dunyoning qimmatli arxiv va kutubxona fondlarini saqlash, ularda saqlanayotgan xazinalar haqidagi ma’lumotlarni keng targ‘ib qilish maqsadida 1992-yilda YUNESKO tomonidan tashkil etilgan. YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekistonning noyob yozma yodgorliklari jumlasiga:

O‘zbekistonda saqlanayotgan muqaddas Usmon Qur’oni. Mazkur meros obyektini 1996-yilda O‘zbekiston tomonidan taqdim etilgan va 1997-yilda ro‘yxatga olingan⁸⁹. U Markaziy Osiyo madaniy va ilmiy merosining muhim qismi hisoblanadi. Qur’oni karimning bugungi kungacha saqlanib qolgan eng qadimiy qo‘lyozmasi bo‘lib, VII asrda hijoz xatida yozilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari to‘plami. Mazkur meros obyektini 1997-yilda O‘zbekiston tomonidan taqdim etilgan va shu yili ro‘yxatga olingan. U madaniy va tarixiy ahamiyatga ega yozma manbalar majmuasini tashkil etadi. Bu Markaziy Osiyo qo‘lyozmalarining eng muhim to‘plamlaridan biridir. To‘plam ushbu hududning Buyuk Ipak yo‘li chorrahasi sifatidagi o‘rnini hamda islom ilmi va madaniyati rivojlanishidagi ahamiyatini aks ettiradi. Ushbu to‘plam Markaziy Osiyo xalqlari, shuningdek Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Eron va arab dunyosi xalqlarining tarixi hamda madaniyatini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu mintaqalar o‘rtasidagi siyosiy, diplomatik va madaniy aloqalarni o‘rganish uchun ham muhim manba hisoblanadi.⁹⁰

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan “Xiva xonligi konselyariyasi”. Mazkur meros obyektini 2016-yilda O‘zbekiston tomonidan taqdim etilgan va 2017-yilda ro‘yxatga olingan. U ilmiy va madaniy ahamiyatga ega yozma meros sifatida e’tirof etiladi. **“Xiva xonlari devonxonasi” arxiv fondidagi hujjatlar to‘plami** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanadigan Markaziy Osiyo hukmdorlarining eng yirik arxivlaridan biridir.⁹¹

Buxoro amirligining qushbegi ma’muriyati arxivlari to‘plami. Mazkur meros obyektini 2021-yilda O‘zbekiston tomonidan taqdim etilgan va 2023-yilda ro‘yxatga olingan. Ushbu to‘plam jahon madaniy va ilmiy merosining muhim qismi sifatida e’tirof etilgan. **Ushbu arxivlar to‘plami** Markaziy Osiyo hukmdorlarining Buxorodagi eng yirik arxiv to‘plamlaridan biridir. U hozirgi O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston hududlari hamda qisman Afg‘oniston hududida yuz bergan 200 yildan ortiq tarixiy voqealarni aks ettiradi⁹².

⁸⁹ O‘zbekistonda saqlanayotgan muqaddas Usmon Qur’oni. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/holy-koran-mushaf-othman?hub=1081>

⁹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari to‘plami. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/collection-al-biruni-institute-oriental-studies?hub=1081>

⁹¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan “Xiva xonligi konselyariyasi” // <https://www.unesco.org/en/memory-world/archives-chancellery-khiva-khans?hub=1081>

⁹² Buxoro amirligining qushbegi ma’muriyati arxivlari to‘plami // <https://www.unesco.org/en/memory-world/qushbegi-chancellery-bukhara-emirate?hub=1081>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Mavlono Rumiyy kulliyoti 2021-yilda O'zbekiston, Bolgariya, Germaniya, Eron, Tojikiston, Turkiya nomzodligida taqdim etilgan⁹³ va 2023-yilda ro'yxatga olingan⁹⁴. U bir nechta davlatlarning umumiy tarixiy-madaniy merosini aks ettiradi. Mavlononing barcha asarlari fors tilida yozilgan bo'lsa-da, ayrimlarida arabcha, turkiy va yunoncha ibora hamda ifodalar ham uchraydi. Bu holat uning falsafasidagi ko'p madaniyatlilik va bag'rikenglik g'oyalarini o'sha davrning o'zidayoq namoyon etadi. Dunyoning turli mamlakatlarida uning asarlarining minglab qo'lyozma nusxalari saqlanadi va ular ko'plab tillarga tarjima qilingan. Mavlono asarlari Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganishda nihoyatda katta ilmiy ahamiyatga ega. Ular hikmatli so'zlar va pand-nasihatlarni, tarbiyaviy mazmundagi she'riy hikoyalarni, shuningdek payg'ambarlar, hukmdorlar, darveshlar, qullar, oshiqlar va boshqa insonlar hayotidan olingan ibratli misollarni o'z ichiga oladi.

“Jome' at-tavorix” (Tarixlar to'plami) asari. 2023-yilda Turkiya va O'zbekiston hamkorligida taqdim qilinib, 2025-yilda ro'yxatga kiritilgan⁹⁵. “Jome' at-tavorix” asari Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy tomonidan yozilgan bo'lib, Osiyo va Yevropadagi turli qabila va xalqlar hamda ushbu qit'alarda tashkil topgan davlatlar tarixini qamrab olgan ilk universal tarixiy asarlardan biridir. Jome' at-tavorix” jahon tarixiy geografiyasiga oid noyob ma'lumotlarni o'z ichiga oladi hamda o'z davri uchun ham, keyingi davrlar uchun ham yangilik bo'lgan original ilmiy qarash va xulosalarni taqdim etadi. Qo'lyozma mazmunining boyligi va undagi ma'lumotlarning ishonchliligi bilan alohida ajralib turadi.

Mug' tog'idan topilgan sug'diy hujjatlar. 2025-yilda O'zbekiston va Koreya Respublikasi tomonidan ro'yxatga kiritilgan⁹⁶. VIII asrga oid bu noyob hujjatlar – maktublar, shartnomalar, diplomatik yozishmalar va hatto josuslik axborotlari arablar Markaziy Osiyoni zabt etishi arafasidagi davrni yoritib beradi.

2024-yilning 7-8-may kunlari Mo'g'uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida YUNESKO Osiyo va Tinch okeani havzasi bo'yicha Jahon xotirasi qo'mitasining 10-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashabbus ko'rsatgan ikki nomzodnoma Osiyo va Tinch okeani havzasining Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritildi. Jahon xotirasi ro'yxatidan “Turkiston albomi (1871-1872)” va “Xudoybergan Devonovning Xorazm vohasi fotosuratlarini (1879-1937)” munosib o'rin oldi. Mintaqaviy nominatsiyalarning mazkur Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilishi bebaho hujjatli yodgorliklarni asrab-avaylashga xizmat qiladi. Avvalambor, O'zbekiston bilan bog'liq asarlar nomlari va ular haqida ma'lumotlar xalqaro darajada abadiylashtirildi. Bundan tashqari, reestr

⁹³ Asrorxo'jayeva M. O'zbekistonning ko'p tomonlama diplomatiyasida YUNESKO bilan hamkorlik istiqbollari. Monografiya. – T.: “Donishmand ziyosi”. 2024. – B. 129.

⁹⁴ Mavlono Rumiyy kulliyoti // <https://www.unesco.org/en/memory-world/mawlanas-kulliyat-complete-works-mawlana?hub=1081>

⁹⁵ “Jome' at-tavorix” (Tarixlar to'plami) asari. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/camiut-tevarih/jami-al-tavarikh?hub=1081>

⁹⁶ Mug' tog'idan topilgan sug'diy hujjatlar. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/collection-documents-mount-mugh?hub=1081>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



yo‘qorida qayd etilgan to‘plamlarning dunyo bo‘ylab yanada ommalashishiga, jumladan, ular bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni yanada oshishiga xizmat qiladi.

YUNESKOning “Jahon xotirasi” dasturi ro‘yxatiga O‘zbekistonga tegishli hujjatli meros namunalari kiritilishi mamlakatimiz uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, bu O‘zbekistonning boy tarixiy, ilmiy va madaniy merosining jahon hamjamiyati tomonidan keng e‘tirof etilishiga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, noyob qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar va arxiv materiallarining xalqaro miqyosda muhofaza qilinishi, saqlanishi hamda kelajak avlodlarga yetkazilishi uchun muhim huquqiy va amaliy asos yaratadi. Uchinchi tomondan esa, mamlakatimizning madaniy-ma‘rifiy salohiyatini dunyo miqyosida targ‘ib etish, ilmiy tadqiqotlar va madaniy turizm rivojiga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda hujjatli meros obyektlarini o‘rganish, ularni saqlash, restavratsiya qilish va raqamlashtirish, noyob manbalarni YUNESKOning “Jahon xotirasi” ro‘yxatlariga kiritish bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, ushbu sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish, fuqarolarning tarixiy merosni asrash borasidagi mas‘uliyatini oshirish hamda xalqaro tashkilotlar, kutubxonalar, arxivlar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik ko‘lamini kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalari qatoriga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. YUNESKO Ijroiya kengashi O‘zbekistonning 19-noyabrni Xalqaro hujjatli meros kuni deb e‘lon qilish tashabbusini bir ovozdan ma‘qulladi. // <https://dunyo.info/uz/Fakt/ispolnitelnyy-sovet-yunesko-edinoglasno-odobril-iniciativu-uzbekistana-o>
2. O‘zbekistonda saqlanayotgan muqaddas Usmon Qur’oni. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/holy-koran-mushaf-othman?hub=1081>
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari to‘plami. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/collection-al-biruni-institute-oriental-studies?hub=1081>
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan “Xiva xonligi konselyariyasi” // <https://www.unesco.org/en/memory-world/archives-chancellery-khiva-khans?hub=1081>
5. Buxoro amirligining qushbegi ma‘muriyati arxivlari to‘plami // <https://www.unesco.org/en/memory-world/qushbegi-chancellery-bukhara-emirate?hub=1081>
6. Asrorxo‘jayeva M. O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasida YUNESKO bilan hamkorlik istiqbollari. Monografiya. – T.: “Donishmand ziyosi”. 2024. – B. 129.
7. Mavlono Rumi kulliyoti // <https://www.unesco.org/en/memory-world/mawlanas-kulliyat-complete-works-mawlana?hub=1081>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



8. “Jome’ at-tavorix” (Tarixlar to‘plami) asari. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/camiut-tevarih/jami-al-tawarikh?hub=1081>
9. Mug tog‘idan topilgan sug‘diy hujjatlar. // <https://www.unesco.org/en/memory-world/collection-documents-mount-mugh?hub=1081>
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 03.03.2021 yildagi “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 119-sonli qarori // <https://lex.uz/en/docs/-5320217#-5322758>

